

PAPER

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODIDA OLQISHLARNING ETIMOLOGIYASI

Xojibekova Ma'mura Odiljon qizi^{1,*} and Nargiza Pazlitdinova¹

¹University of Business and Science Lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi 1-kurs magistranti

²University of Business and Science Til va adabiyot ta'limi kafedrası falsafa fanları do'ktori

*mamuraxonxojibekova@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada xalq og'zaki ijodida olqishlarning etimologiyasi, va ularning paydo bo'lishi tarixiy-madaniy omillar bilan bog'liqligi haqida so'z boradi. Olqishlar xalqning dunyoqarashi qadriyatlarini aks ettiruvchi til birliklari sifatida o'rgani- lib, ularning etimologiyasi bir yoqlama emas, balki turkiy ildizlar, islomiy duo formulalari, xalq folklori, ma'naviy-madaniy tasavvurlarning sintezidan tarkib topgan ko'p qatlamli hodisa ekani yoritiladi. Tadqiqot natijalari ushbu lingvokulturologik xususiyatlar o'zbek tilining eng barqaror, faol va ma'naviy kuchli birliklari ekanligini ko'rsatadi.

Key words: olqishlar, xalq og'zaki ijodi, duo, marosim, tilshunoslik, etimologiya, semantika, pragmatika

KIRISH

O'zbek xalqi azaldan qadimiy urf-odatlariga, an'analarga, marosimlarga boy xalq. Nafaqat o'zbek xalqi balki, har bir xalqning o'zining kelib chiqish tarixi, madaniyati, urf-odatlari, an'analari bor. Ana shunday milliy qadriyatlar sirasiga olqishlarni ham mumkin. Olqishlar - o'zbek xalq og'zaki ijodida muhim pragmatik birlik sifatida qadrlanadi. Ular kishilarga yaxshilik, ezgu niyat, xotirjamlik, qut-baraka, yaxshilikka yo'g'rilgan ma'naviy ko'mak va ijtimoiy birdamlik ramzi bo'lib xizmat qiladi. Ular folklor janrlarida tildagi semantik rang-

baranglikni namoyon qiladi. Olqishlarning qadimiy kelib chiqishi qadimgi turkiy til qatlamlariga, diniy va marosimiy an'analarga bog'liq. Olqishlarning etimologiyasini o'rganish lingvistik tarixni va milliy qadriyatlardagi o'zgarishlarni ham ochib beradi.

Olqishlarning etimologiyasini o'rganish - ularning lug'aviy ildizlari, semantik taraqqiyoti, ijtimoiy-madaniy xususiyatlari va nutqiy vazifalarini aniqlash demakdir. Shuning uchun olqishlarning etimologiyasi tilshunoslik, folklorshunoslik, etnolingvistika va pragmalolingvistika kesishgan joyda tadqiq

Compiled on: January 19, 2026.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Humanities* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Olqishlarning etimologiyasi masalasi o'zbek tilshunosligida yetarlicha o'rganilgan bo'lsada, ayrim tadqiqotlar ularning tarixiy ildizlari, diniy-falsafiy asoslari va semantik taraqqiyotini yoritishga alohida e'tibor qaratadi. Avvalo, olqish va duo an'anasi turkiy xalqlar og'zaki ijodining eng qadimgi qatlamlaridan bo'lib, bu boradagi ilk ma'lumotlar Mahmud Koshg'ariyning asarida uchraydi. Unda "alqamak" fe'lining "maqta'moq, duo qilmoq, madhlamoq" ma'nosi berilib, olqishlarning lug'aviy ildizi aynan turkiy tilga mansubligi ilmiy asoslanadi. Bu manba olqishlarning etimologik ildizlar qadimgi turkiy dunyoqarash bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Qadimgi turkiy yodgorliklar – Orxon-Enasoy bitiklari ham olqish mazmunidagi tilak ifodalarini o'zida mujassam etadi. "Kutlug' bol", "Tangri yarlaqasin" kabi qoliplar olqishlarning shakllanishida tangrichilik, ajdodlar ruhi va tasavvurlarning muhim o'rin egallaganini ko'rsatadi.

Tadqiqotchilar A. N. Kononov, V. Radlov, S. Malov kabi turkologlarning ishlari ushbu davr til materiallari ning tahlilida alohida ahamiyatga ega.

O'zbek tilshunosligida olqishlarning semantik-pragmatik tabiati va kelib chiqishi masalasi H. Doniyorov, N. Mahmudov, A. Hojiyev, Z. Yo'ldoshev kabi olimlar tomonidan yoritilgan. O'zbek tilshunosligida olqish va qarg'ishlar masalasi bo'yicha izchil tadqiqotlar olib borgan olimlardan biri Nizomiddin Mahmudovning ta'kidlashicha, olqishlar — bu xalqning ezgulik g'oyalari bilan sug'orilgan, ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni mustahkamlovchi nutqiy birliklardir. Ularning semantik yadrosida odamlarga:

- baxt,
- baraka,
- omad,
- sog'liq,
- totuvlik
- tilash kabi ijobiy maqsadlar mavjud

Olqishlar oddiy istak emas, balki ruhiy-psixologik qo'llab-quvvatlovchi performativ nutq aktidir. Chunki ularda so'zlovchining ezgu niyati tinglovchiga ma'naviy ta'sir etadi. Bu borada Bahodir Sarimsoqov "O'zbek marosim

folklori" kitobida olqishlarning etimologiyasini marosimlar bilan bog'laydi. U turli marosimlarning shakllanish jarayoni oraqali tushuntiradi:

- hosil olish marosimi
- mavsumiy marosim
- nikoh marosimi
- bola tug'ilishi
- oila va uy barakasi bilan bog'liq odatlar.

Bu marosimlarning har birida "yaxshilik chaqirish" uchun maxsus nutq formulalari paydo bo'lgan, keyin ular jamlanib olqish janriga aylangan. Shuningdek, Bahodir Sarimsoqov olqish va duoni farqlaydi: duo – diniy matn, olqish – qadimgi e'tiqodiy ildizga ega poetik nutq. Shu sabab olqishlarning etimologiyasi diniy ildizlarga emas, balki marosimiy-mifologik ildizlarga tayanadi.

TADQIQOT METODLARI

Olqishlarning etimologiyasini o'rganish tilshunoslikning leksikologiya, etimologiya, tarixiy grammatika, lingvokulturologiya va pragmatika sohalarining kesishgan nuqtasida joylashgan murakkab tadqiqot yo'nalishidir. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar o'zbek xalqining qadimiy dunyoqarashi, tilning rivojlanish bosqichlari, urf-odatlar va nutq madaniyatini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Olqishlarning kelib chiqishini ilmiy tahlil qilishda tarixiy-qiyosiy, etnolingvistik, semantik tahlil, morfologik-struktur tahlil, pragmatik, lingvokulturologik hamda leksikografik tahlildan keng foydalaniladi.

Olqishlar tarkibidagi arxaik leksemalar, qadimiy shakllar va iboralar tarixiy qiyoslash orqali aniqlanadi. Qadimgi turkiy yodgorliklar (Qutadg'u bilig, Devonu lug'otit turk, O'rxun bitiklari) dagi o'xshash iboralar bilan hozirgi o'zbek olqishlari qiyoslanadi. "Baraka", "duo", "umr", "savob" kabi komponentlarning shakl va ma'no taraqqiyoti solishtiriladi.

Olqishlarning etimologiyasini o'rganishda etnolingvistika muhim o'rin tutadi. Olqishlarning paydo bo'lishi xalqning dunyoqarashi, urf-odatlar, marosimlari bilan bog'liq ravishda talqin qilinadi. Masalan, "Yo'ling ochiq bo'lsin", "Uyingga fayz kirsin", "Ko'zingga nur yog'ilsin" kabi olqishlar qadimdan marosimlar bilan bog'liq ma'naviy funksiyani bajargan. Etnolingvistik yondashuv

olqishlarning ma'no ildizlarini xalq madaniyati bilan bog'lab tahlil qiladi.

Olqishlar o'ziga xos nutqiy qolipga ega bo'lib, ular ko'pincha quyidagi modellarda uchraydi:

– Buyruq mayli: “Omad bersin”, “Doimo kulib yuring”.

– Istak mayli: “Ko'zingiz yorug' bo'lsin”, “Umringiz uzun bo'lsin”.

– Duogo'y shakl: “Alloh rozi bo'lsin”, “Xudo asrasin”.

Olqishlarning etimologiyasini to'liq tushunish uchun ular qaysi vaziyatda, kim tomonidan va qanday maqsadda ishlatilishini bilish muhimdir. Pragmatik tahlil quyidagilarni o'rganadi:

– olqishlarning muloqotdagi ijtimoiy vazifasi;

– marosim, safarbarlik, nikoh, tug'ilish, kasallik kabi kontekstlarda qo'llanishi;

– xushxabar, tabrik, tilak bildirish kabi nutqiy aktlar bilan bog'liqligi. Olqishlar, aslida, ijobiy perlokutiv ta'sir — quvvat, duo, tilak berish funksiyasini bajaradi.

Olqishlarning mazmuni, timsollari va ramziy obrazlari madaniy tushunchalar orqali izohlanadi.

– “Oq yo'l” → ezgulik, poklik.

– “Fayzli bo'lsin” → mo'lchilik timsoli.

– “Ko'ngling yorug' bo'lsin” → nur, yengillik konsepti.

Bu metod olqishlarni xalqning mentaliteti, qadriyatlari, diniy dunyoqarashi bilan uzviy holda o'rganadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu tadqiqotda olqishlarning etimologik ildizlari, shakllanish jarayoni va mazmuniy taraqqiyoti lingvistik hamda etnolingvistik yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Tahlillar natijalari shuni ko'rsatdiki, olqishlar o'zbek xalqining qadimiy dunyoqarashi, diniy tasavvurlari, ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'p qatlamli til birliklaridir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, olqishlarning shakllanishi ikki asosiy manbaga tayanadi:

1. diniy – didaktik an'ana (islomiy duo formulalari: “Alloh yorlaqasin”, “Omad bersin”);

2. maishiy-badiiy an'ana (xalqona til unsurlari: “yo'ling ravon bo'lsin”, “boshing omon bo'lsin”).

A. Yo'ldoshevning fikriga ko'ra, “bo'lsin” modeli turkiy tillarda qadimiy istak ifodasi bo'lib,

olqishlarning asosiy yadrosini tashkil qiladi. Bu tadqiqotda ham tasdiqlandi. Nizomiddin Mahmudovning fikricha, olqishlarning til tizimidagi paydo bo'lishi xalqning kundalik madaniy-amaliy ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular turli vaziyatlarda ijtimoiy kommunikatsiyani tartibga soluvchi pragmatik birliklar sifatida shakllangan.

Tadqiqot jarayonida olqishlarda uchraydigan qadimiy metaforalar (yo'l – hayot, yorug'lik baxt, balandlik – martaba, baraka – farovonlik) ularning semantik tuzilishini boyitganini ko'rsatdi. Bu holat Sarimsoqov tomonidan qayd etilganidek, xalqning dunyoqarashi, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari bilan bog'liq holda evolyutsiyalashgan.

Umuman olganda, tadqiqot olqishlarning etimologik, semantik va pragmatik jihatlarida tilda ko'p qatlamli tarixiy-madaniy jarayonlarning ifodasi sifatida shakllanganini tasdiqlaydi. Ular o'zbek xalqining ruhiy olami, ma'naviy qadriyatlari va ijtimoiy munosabat tizimini aks ettiruvchi muhim lingvistik birliklar bo'lib, zamonaviy til amaliyotida ham o'z faol mavqeini saqlab qolmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, olqishlarning etimologik ildizlari o'zbek xalqining qadimiy madaniy tafakkuri, diniy tasavvurlari va ijtimoiy hayot tarzining tarixiy qatlamlari bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatdi. Olqishlarning shakllanishida avvalo turkiy dunyoqarashga xos bo'lgan ezgulik tilash, baraka hamda umr uzun bo'lishini niyat qilish kabi qadimiy konsepsiyalar asosiy o'rin tutadi. O'z navbatida, islomiy – munosabatlar tizimi rivojlangan davrlarda olqishlar tarkibiga duo formulalaridan kirgan arabcha va forsa unsurlar ham singib ketgan bo'lib, bu jarayon ularning semantik ko'lamini yanada kengaytirgan. Olqishlarning etimologik tarkibi va mazmuniy tizimi ularni o'zbek tilida eng faol qo'llanadigan pragmatik birliklardan biriga aylantiradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, olqishlar faqatgina til hodisasi bo'lib qolmay, balki jamiyatning ma'naviy ehtiyojidan kelib chiqqan kommunikativ vosita sifatida shakllangan.

Ular insonlar o'rtasida ezgulikka chorlov, duogo'ylik, qo'llab-quvvatlash, ijobiy tilak

bildirish kabi qadriyatlarni mustahkamlaydi va ijtimoiy munosabatlarda muhim psixologik vazifani bajaradi. Shu bilan birga, olqishlardagi metaforik obrazlar — yo‘l, baraka, yorug‘lik, balandlik, ravonlik kabi timsollar — xalqning dunyoqarashi va hayot haqidagi tasavvurlarining til vositasida aks etgan an‘anaviy ma‘naviy merosi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa olqishlarni lingvokulturologik hodisa sifatida o‘rganish zarurligini va ular milliy mentalitetning barqaror unsurlaridan biri ekanini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N. O‘zbek tili pragmatikasi. – Toshkent: Fan, 2012.
2. Sarimsoqov B. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2018.
3. Yo‘ldoshev A. O‘zbek tilida duogo‘y birliklarning pragmatik talqini. – Ilmiy maqolalar to‘plami, 2015.
4. To‘xtiyev B. Til va madaniyat: pragmatik yondashuv. – Maqola.
5. Oxunjon Safarov o‘zbek xalq og‘zaki ijodi. - «Musiq» nashriyoti . Toshkent. 2010.
6. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori.– Toshkent: Fan, 1986.